

## XALQ TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA MILLIY KADRLAR TAYYORLASH

Sattorov M.D. -

SamDU dotsenti,

*falsafa fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)*

XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida jadidchilik harakati, o'zining asosiy maqsadlaridan biri sifatida milliy taraqqiyotga xizmat qiluvchi, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlashni asosiy maqsadi sifatida alohida e'tibor qaratgan edi. Jadid ma'rifatparvarlari jamiyatni yuksaltirish, millatni ravnaqi, xalqning farovonligiga bevosita ta'lim tizimining rivojlanishi, zamonaviy ilm-fan va ma'rifatni keng targ'ib etish bilan bog'liq ekanligini chuqur anglab yetishdi. Jadid ma'rifatining ustunlari hisoblanmish Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvar qori kabi jonkuyar ziyoli jadidlar maktablar ochib, ularda o'zlari dars berishib, o'quv qo'llanma va darsliklar yozishdi bu yo'lda jonbozlik ko'rsatishar edilar. Millatparvar va taraqqiyparvar jadidlar bunday vaziyatni teran anglagani uchun Turkistonni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishning birdan-bir yo'li xalq ongini yangilash, ilm-fan, maorifni taraqqiy ettirish deb bilardi.[1]

Bugun biz mamlakatimizda erkin fuqarolik va demokratik jamiyatini barpo etishni orzu qilar ekanmiz jadidlar merosiga intilmoqdamiz. Bu ulug'vor vazifalarni hal etish borasida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoevning 2023-yil 6-mart kuni Jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigida alohida to'xlatib o'tgan edi: "Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz, jadid bobolarimizning gumanistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan ma'naviy kuch-quvvat olamiz. Yurtimizda mustabid tuzum davrida siyosiy qatag'onga uchragan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda".

Bugungi globallashuvning tobora avj olib borayotgan bir sharoitda xalq ta'lim tizimini rivojlantirish har bir mamlakatning strategik vazifasiga aylanmoqda. Xususan, ta'lim tizimini samaradorligini belgilashda eng avvalo, milliy kadrlarni tayyorlash sifati, pedagogik yondashuvlar va zamonaviy ta'lim modellarining joriy etish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, bu borada, rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish va uni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Jadid ma'rifatparvarlari mavjud an'anaviy ta'lim tizimining ijtimoiy taraqqiyot talablaridan kelib chiqqan holda zamonaviy ta'lim modellarini o'rganish va ularni milliy muhitga moslashtirishga alohida e'tibor qaratishdi. Bu o'rinda, jadid ma'rifatparvarlari Ovrupa davlatlarining qisqa vaqt ichida taraqqiy etishida ta'limga qaratilgan e'tibor bilan bog'liq ekanligini anglashadi.

Ayniqsa Germaniya davlati jadid ma'rifatparvarlari uchun sanoatlashgan davlat, fan markazi, texnika taraqqiyoti o'chog'i, pedagogik innovasiyalar mamlakati sifatida alohida namuna bo'ldi. Shunday qilib, Turkiston va Buxorodan 1922-yil oxirlarida 70 ga yaqin turli yoshdagi maqalliy yosh yigit va qizlar Germaniyaning turli shaqarlaridagi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlariga qishloq xo'jaligi, tekstil sanoati, kimyo, elektrotexnika, konchilik, falsafa, pedagogika, tibbiyot soqalaribo'yicha o'qishga yuboriladi [3].

Albatta, jadid ma'rifatparvarlari Germaniya tajribasini ko'r-ko'rona qabul qilmasdan uni milliy qadriyatlarimiz, islom axloqi, sharqona ma'naviyat asosida Yevropa pedagogikasining ilg'or namunalarini moslashtirishga harakat qilishdi. Nemis falsafasi va pedagogikasida rasional fikrlashga alohida e'tibor qaratilgan bo'lsa, jadidlar ham ta'limda mustaqil fikrlash orqali tahlil qilishga hamda mantiqiy mushohada asosida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga harakat qilishgan. A.Fitratning fikricha, Turkistonni mustaqil taraqqiyot yo'liga qaytarishning yagona yo'li millatni, xalqni o'qimishli, ma'rifatli qilish, uning barcha qatlamlariga ziyo tarqatish, tarixan doimo ozod va mustaqil yashashga intilgan buyuk millat, xalq ekanligi ruhiyatini singdirish, odamlarda Vatan taqdiri va istiqboli uchun mas'ullik hissinini uyg'otishdir [6].

Jadid ma'rifatparvarlari xalq ta'lim tizimini rivojlantirish va milliy kadrlar tayyorlashda Turkiya tajribasidan foydalanishga ham alohida e'tibor qartishdi. Shu o'rinda, jadidlar xalqni ilm-ma'rifat qilish orqali taraqqiyotga olib chiqish, milliy kadrlar tayyorlash va jamiyatni modernizasiya qilishni o'zlarni eng asosiy vazifalari sifatida teran anglab etishdi. Mazkur jarayonda ular dunyoning ilg'or rivojlangan mamlakatlari qatori Turkiya ta'lim tizimi va islohotlariga ham katta qiziqish bilan e'tibor qaratishdi.

Albatta mazkur jarayon jadidlar ma'rifatparvarlarini yangi usul maktablarini tashkil etishga ilhomlantirdi. Natijada Turkistonda "usuli jadid" maktablari paydo bo'ldi. Shuni alohida qayd etish joizki, Turkiya tajribasida davlat taraqqiyoti uchun milliy kadrlar tayyorlash dolzarb muhim vazifa sifatida belgilangan edi. Mazkur jarayonni to'g'ri anglagan jadidlar ham aynan shu g'oyani qo'llab-quvvatlashdilar. Jadid ma'rifatparvarlari fikriga ko'ra millat taraqqiyoti bilimli yoshlarga bog'liq, zamonaviy mutaxassislar jamiyatni rivojlantiradi, milliy ziyolilar xalqni ma'rifatga etaklaydi. Aynan, shu sababli jadidlar o'qituvchilar tayyorlash, xorijda ta'lim olishni rag'batlantirish, zamonaviy darsliklar yaratish, milliy matbuotni rivojlantirishga katta ahamiyat qaratishdi.

Shu qayd etish joizki, Turkiya tajribasiga ham e'tibor qaratilsa, pedagog kadrlar tayyorlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Turkiyadagi ta'lim islohotlarini amalga oshirishda matbuot muhim ma'rifiy vosita vazifasini o'tagan. Buni chuqur anglagan jadidlar ham gazetalar, jurnallar va teatr orqali xalq ongini uyg'otishga harakat qilishgan. Dastlabki jadid matbuoti 1883-yil Bog'chasaroyda nashr etilgan I.G'aspiralining "Tarjimon" gazetasidir. "Tarjimon" butun turkiy dunyoga yoyilib, Turkistondagi Rossiya imperiyasining mustamlakachilik zulmiga qarshi maqolalari bilan o'lkada o'zlikni anglashni boshlab berdi [8].

Jadidlar tomonidan Turkistonda "Taraqqiy", "Samarqand", "Oyina" kabi nashrlar tashkil etildi. Turkistondagi ilk milliy gazeta 1906-yil 27-iyun kuni tatar taraqqiyparvari Ismoil Obidiy muharrirligi ostida chop etilgan "Taraqqiy" gazetasi hisoblanadi. Gazeta chiqishi munosabati bilan Ismoilbek G'aspirali, Abdulla To'qaylardek yirik taraqqiyparvarlar tabriknomalarini yo'lladilar, Munavvar qori, Avloniylarning maqolalari bu gazetani xalq o'rtasida yanada mashhur bo'lishiga yordam berdi [9]. Jadidlar tomonidan nashr etiladigan gazetalarda ta'lim g'oyalarini targ'ib qilish, millatni ilmga chorlash, zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Jadid matbuoti, xususan, "Tarjimon", "Oyna", "Sadoyi Turkiston" gazetalarda Germaniya va Turkiya ta'lim tizimlari, ularning islohotlari, yutuqlari va kamchiliklari haqida maqolalar e'lon qilindi. Jadid ziyolilari Germaniya va Turkiya ta'lim muassasalariga sayohat qilib, u erlardagi ta'lim jarayoni bilan tanishdilar va o'z kuzatuvlarini matbuotda e'lon qildilar.

Jadid ma'rifatparvarlari o'qituvchilarning malakasini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni amalga oshirdilar. Ular o'qituvchilar uchun kurslar va seminarlar tashkil etdilar, ularni Germaniya va Turkiya ta'lim muassasalariga malaka oshirishga yubordilar. O'qituvchilarning malakasini oshirish ta'lim sifatini yuksaltirish va milliy kadrlarni tayyorlashda muhim rol o'ynadi. Jadid ma'rifatparvarlari milliy matbuot va kutubxonalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratdilar. Ular gazeta va jurnallar nashr etdilar, kutubxonalar tashkil etdilar va kitob nashriyotini rivojlantirdilar. Milliy matbuot va kutubxonalar jadid g'oyalarini tarqatish, xalqning ma'rifiy darajasini oshirish va milliy o'zlikni anglashda muhim rol o'ynadi.

Jadid ma'rifatparvarlarining milliy kadrlar tayyorlash va xalq ta'limi tizimini rivojlantirish borasidagi tajribasi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Jadidlar g'oyalari zamonaviy ta'lim tizimini takomillashtirish, milliy qadriyatlarni saqlab qolish va zamonaviy bilimlar bilan uyg'unlashtirish, milliy kadrlarni tayyorlash va xalqning ma'rifiy darajasini oshirishda muhim yo'nalishlarni belgilab berishi mumkin.

Jadidlar ta'limda milliy o'zlikni anglash bilan birga, zamonaviy ilm-fan va umuminsoniy qadriyatlarni ham o'zlashtirish zarurligini ta'kidlaganlar. Bugungi kunda ham ta'lim tizimi yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash bilan birga, ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishi, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashi zarur.

Jadidlar professional ta'limning ahamiyatini yaxshi anglaganlar va uni rivojlantirishga harakat qilganlar. Bugungi kunda ham mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi uchun yuqori

malakali professional kadrlarga ehtiyoj katta. Shu sababli, professional ta'lim tizimini rivojlantirish, dual ta'lim tizimini kengaytirish, kasb-hunar kollejlarning rolini oshirish zarur.

Jadidlar universitet ta'limining yuqori sifatli bo'lishini ta'kidlaganlar. Bugungi kunda ham universitet ta'limining sifatini oshirish, universitetlarni ilmiy tadqiqot markazlariga aylantirish, talabalarni ilmiy izlanishlarga jalb qilish, professor-o'qituvchilarning malakasini yuksaltirish zarur.

Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish: Jadidlar o'z davrida matbuot va nashriyotning imkoniyatlaridan foydalanganlar. Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari ta'lim tizimini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu sababli, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, elektron ta'lim resurslaridan, masofaviy ta'lim shakllaridan keng foydalanish zarur.

Ta'limning uzluksizligi va hayot davomida ta'lim olish tamoyilini amalga oshirish: Jadidlar ilm olishning chegarasi yo'qligini, doimiy ravishda bilim olish va o'rganish zarurligini ta'kidlaganlar. Bugungi kunda ham hayot davomida ta'lim olish tamoyili dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, kattalar ta'limini tashkil etish, malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish zarur.

Milliy kadrlar tayyorlash va xalq ta'limi tizimini rivojlantirishda Germaniya va Turkiya tajribasi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, jadid ma'rifatparvarlari bu tajribani o'rganishga, ulardan ibrat olishga va o'z sharoitlariga moslashtirishga intildilar. Jadidlar Germaniya tajribasidan professional ta'limga ustuvorlik berish, universitet ta'limining sifatini oshirish, o'qituvchilarning malakasini yuksaltirish va ta'limning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi kabi jihatlarni o'rgandilar. Turkiya tajribasidan esa ta'limning dunyoviyashtirilishi, milliyashtirilishi, umumiy majburiylik, lotin yozuviga o'tish va qizlar ta'limiga e'tibor berish kabi jihatlarni o'rganishga qiziqdilar.

Jadid ma'rifatparvarlarining sa'y-harakatlari natijasida Turkiston o'lkasida "usuli jadid" maktablari tashkil etildi, milliy darsliklar va o'quv qo'llanmalari yaratildi, o'qituvchilarning malakasi oshirildi, milliy matbuot va kutubxonalar rivojlantirildi. Jadidlar faoliyati milliy kadrlar tayyorlash va xalq ta'limi tizimining rivojlanishiga muhim hissa qo'shdi.

Jadid ma'rifatparvarlarining tajribasi bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan va zamonaviy ta'lim tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Jadidlar g'oyalari ta'limda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, professional ta'limni rivojlantirishga e'tibor berish, universitet ta'limining sifatini oshirish, ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, ta'limning uzluksizligi va hayot davomida ta'lim olish tamoyilini amalga oshirish kabi yo'nalishlarda zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish uchun muhim yo'nalishlarni belgilab beradi. Jadidlar merosini o'rganish, ularning g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish bugungi kunda ma'naviy yuksalish va taraqqiyot sari intilayotgan O'zbekiston uchun muhim vazifalardan biridir. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari jadidlar orzu qilgan ma'rifiy jamiyatni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Albatta, bu jarayonda Turkiya tajribasi va jadidlar merosidan quyidagi yo'nalishlarda foydalanish mumkin.

Jumladan, milliy qadriyatlarga asoslangan ta'limni rivojlantirish, raqobatbardosh milliy kadrlar tayyorlash, kasbiy ta'limni kuchaytirish, pedagog kadrlar malakasini oshirish, innovasion va raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish, ta'lim va tarbiya uyg'unligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xulosa qilib aytganda, jadid ma'rifatparvarlari xalq ta'limi tizimini rivojlantirish va milliy kadrlar tayyorlashda Germaniya va Turkiya tajribasidan samarali foydalanganlar. Ular Germaniya va Turkiya ta'lim modelining milliylik, zamonaviylik, amaliylik va ma'rifatparvarlik kabi xususiyatlarini Turkiston sharoitiga moslashtirishga harakat qilishgan. Jadidlarning ta'lim sohasidagi g'oyalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, milliy ta'lim tizimini takomillashtirish, intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalash va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim nazariy-amaliy manba hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Назаров Қ. Жадид фалсафаси. Янги Ўзбекистон газетаси № 11 (1072), 2024 йил 16 январь, сешанба Б-З.

2. Мирзиёев Ш. «Жадидларнинг маърифий фаолияти: ғоялари, муаммолари, Туркистон тараққиётига қўшган ҳиссаси» мавзuidaги халқаро конференция иштирокчиларига йўлланган табрик нутқи. <https://president.uz/uz/lists/view/6919>
3. Турдиев Ш. Улар Германияда ўқиган эдилар. - Т.: 2006. Б-10.
4. Абдулҳаким Нурбой. Биз қандай миллатмиз? // Тафаккур. – Тошкент, 2005, 2-сон.

**RESUME:**

Mazkur maqolada xalq ta'limi tizimini rivojlantirishda milliy kadrlar tayyorlashning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** xalq ta'limi, milliy kadrlar tayyorlash, ta'lim tizimi, Germaniya tajribasi.

**РЕЗЮМЕ:**

В данной статье анализируются теоретические и практические основы подготовки национальных кадров в развитии системы государственного образования.

**Ключевые слова:** государственное образование, подготовка национальных кадров, система образования, немецкий опыт.

**RESUME:**

This article analyzes the theoretical and practical foundations of national personnel training in the development of the public education system.

Keywords: public education, national personnel training, education system, German experience.